

Bani Isroilning qaysarligi



15:43 / 31.10.2022 2362

Isroil farzandlari o'jar tabiatli bolaga o'xshardilar. Ular buyurilgan ishning teskarisini qilishni va masxaralashni yaxshi ko'rishardi. Bu qavm o'zlariga aytilgan narsani albatta almashtirish kerak, deb turardi. Xuddi o'jar bolalar kabi: Agar siz ularga «Tur!», desangiz o'tirib olishadi. «O'tir!», degan buyruqni eshitishlari bilan sakrab turishadi. «Jim bo'1!», deyilganda gapirib, «Gapir!», deyilsa jim turishadi.

Bani Isroilning o'jarligida nodonlik, jinnilarcha hatti-harakat va maraz ishoralar ham bor edi.

Ular bir qishloqqa tushib uning sabzavot va poliz ekinlaridan tashkil topgan ishtahali ovqatlaridan yemoqchi bo'ldilar. Lekin Alloh taolo izn bergach: «Ushbu qishloqqa (Quddusga) kiringlarda, undan xohlagan joylaringizda yeb-ichinglar.

Darvozadan sajda qilgan holingizda kiringlar va «avf et» denglar, biz xatolaringizni magʻfirat qilamiz va yaxshilik egalariga ziyoda neʻmatlar ato qilamiz».

Bani Isroil ushbu ilohiy amrdan oʻzlaricha dargʻazab boʻldilar. Ular shaharga xohlamasdan istehzo qilib orqalari bilan yer supirib-sudralib kirdilar.

«Shunda zolim kimsalar ularga aytilgan soʻzdan boshqa soʻzni almashtirib aytdilar».

Alloh taolo ular ustiga balo tushirib, vabo balosini yubordi. Qavm sichqon oʻlimidek oʻlib ketdi. Agar ularga bir narsa buyurilsa, titkilab qayta-qayta savol berishaverardi. Kishi bir ishni qilgisi kelmasa, turli bahonalar bilan vaqtni choʻzib yuraveradi. Hadeb savollar beradi. Bani Isroil orasida qotillik sodir boʻldi. Bu narsa Bani Isroilni tashvishga solib qoʻydi. Odamlar har qancha urinmasinlar haqiqiy qotilni topisha olmadi. Qotil haqidagi soʻrov odamlarni kunlik suhbatiga aylanib qoldi. Soʻng Muso alayhissalom huzuriga keldilar:

- Ey Allohning Paygʻambari! Mana shu muammoda bizga yordam bergin. Parvardigoringga duo qil. Qotilning kimligini bildirsin.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad